



BOSHLANG'ICH 1-4- SINFLARDA O'QUVCHILARNING ZAMONAVIY YANGI METODLAR BILAN BILIM, KO'NIKMA VA MALAKA HOSIL QILISH ORQALI KREATIV FIKRLASHGA O'RGATISH

Gulamova Dilrabo Mirmannonovna

Qashqadaryo viloyati G'uzor tumani

48-umumiyo o'rta ta'lif muktabi boshlang'ich sinfo qituvchisi

Annotatsiya: ushbu ilmiy maqolada umumta'lif muktablarining boshlang'ich 1-4- sinflarda o'quvchilarning zamonaviy yangi metodlar bilan bilim, ko'nikma va malaka hosil qilish orqali kreativ fikrlashga o'rgatish bo'yicha mulohazalar keltirib o'tilgan.

Ushbu maqolani yozishdan maqsad: kreativ fikrlashni boshlang'ich ta'lifda tutgan o'rnini ko'rsatib berish.

Usullar va o'yinlar: "Charxpalak", "Bu kim?", "Mening o'rnim qayerda?".

Natija: Boshlang'ich 1-4- sinflarda o'quvchilarning zamonaviy yangi metodlar bilan bilim, ko'nikma va malaka hosil qilish orqali kreativ fikrlashga o'rgatiladi.

Kalit so'zlar: kreativ fikrlash, boshlang'ich ta'lif, mantiq, bilim, ko'nikma...

TEACHING CREATIVE THINKING OF STUDENTS IN PRIMARY GRADES 1-4 BY CREATING KNOWLEDGE, SKILLS AND COMPETENCES WITH MODERN NEW METHODS

Gulamova Dilrabo Mirmannonovna

Guzor District, Kashkadarya Region

48th general secondary school primary school teacher

Annotation: in this scientific article, comments on teaching students to think creatively by creating knowledge, skills and competences with modern new methods in primary 1-4 grades of general education schools are presented.

The purpose of writing this article is to show the place of creative thinking in primary education.

Methods and games: "Charkhpalak", "Who is this?", "Where is my place?".

Result: In primary grades 1-4, students are taught to think creatively by developing knowledge, skills and competences with modern new methods.

Key words: creative thinking, elementary education, logic, knowledge, skills..

ОБУЧЕНИЕ ТВОРЧЕСКОМУ МЫШЛЕНИЮ УЧАЩИХСЯ 1-4 КЛАССОВ ПУТЕМ ФОРМИРОВАНИЯ ЗНАНИЙ, УМЕНИЙ И КОМПЕТЕНЦИЙ СОВРЕМЕННЫМИ НОВЫМИ МЕТОДАМИ

Гуламова Дилрабо Мирманновна



Гузорский район, Каракалпакстанская область
48-я общеобразовательная школа Учитель начальной школы

Аннотация: в данной научной статье представлены комментарии по обучению учащихся творчески мыслить путем формирования знаний, умений и компетенций современными новыми методами в начальных 1-4 классах общеобразовательной школы.

Цель написания данной статьи - показать место творческого мышления в начальном образовании.

Методы и игры: «Чархпалак», «Кто это?», «Где мое место?».

Результат: В начальных классах 1-4 учащихся учат творчески мыслить, развивая знания, умения и компетенции современными новыми методами.

Ключевые слова: творческое мышление, начальное образование, логика, знания, умения...

Barchamizga ma'lumki, kreativ fikrlash bu insonning bizni o'rab turgan hamma narsani mantiqiy yondashgan holda tushunish, yangilik yaratish hamda o'z mustaqil fikrini bayon etish ko'nikmasi hisoblanadi. Aksariyat hollarda bolalarda, ya'ni muktab o'quvchilarida bolalikda faqat aniq fikrlar rivojlanadi. Bugungi davr talabi esa boshlang'ich 1-4- sinflarda o'quvchilarning zamонавиу yangi metodlar bilan bilim, ko'nikma va malaka hosil qilish orqali kreativ fikrlashga o'rgatishni taqozo etmoqda. Buning uchun dastlab quyidagilarga amal qilish lozim:

1.Kishi nutqining yuzaga chiqishi uchun talab bo'lishi kerak. O'quvchilar nutqini o'stirishning metodik talabi o'quvchi o'z fikrini, nimanidir og'zaki va yozma bayon xohishi va zaruriyatni yuzaga keltiradigan vaziyat yaratish hisoblanadi.

2.Har qanday nutqning mazmuni, materiali bo'lishi lozim. Bumaterialqanchalikto'liq, boy, qimmatli bo'lsa, uning bayoni shunchalik mazmunli bo'ladi.

3.Fikr tinglovchi tushunadigan so'z, so'zbirikmasi, gap, nutq axborotlari yordamida ifodalasagina tushunarli bo'ladi. Shuning uchun nutqni muvaffaqiyatli o'stirishning uchinchi sharti – nutqni til vositalari bilan qurollantirish hisoblanadi.

4.O'quvchining bilimi, dunyoqarashi rivojlana borgan sari uning nutqi va tafakkuri ham muttasil o'sib boradi. Ravon, ixcham, ta'sirli nutq tinglovchiga huzur bag'ishlaydi. Boshlang'ich ta'limning asosiy vazifalaridan biri o'z o'quvchilarini ana shunday so'zlashga o'rgatishdir.



**Fikrlash jarayonida
avvaldan olingan
bilimlarni qo'llash**



Mulohaza yuritish



Qayta ishlash



Xulosalash

Boshlang'ich 1-4- sinflarda o'quvchilarning zamonaviy yangi metodlar bilan bilim, ko'nikma va malaka hosil qilish orqali kreativ fikrlashga o'rgatishda quyidagi metodlar va didaktik o'yinlar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

"Charxpakalak: metodi. Mavjud bilimlarni puxta o'zlashtirishda o'quvchlarning fikrlash, tafakkur yuritish layoqatlariga egaliklari muhim ahamiyatga ega."Charxpalar" metodi o'quvchlarda tezkor fikrlash ko'nikmalarini shaklalantirish, shuningdek, ularning tafakkur tezliklarini aniqlashga yordam beradi. Metod o'z xohishlariga ko'ra shaxsiy imkoniyatlarini sinab ko'rish istagida bo'lgan o'quvchlar uchun qulay imkoniyat yaratadi. Ular o'qituvchi tomonidan berilgan savollarga qisqa muddatlarda to'g'ri va aniq javob qaytara olishlari zarur. Savollarning murakkablik darajasiga ko'ra har bir savolga qaytarilgan to'g'ri javob uchun ballar belgilanadi. Yakuniy ballarning o'rtacha arifmetik qiymatini topish asosida tezligi aniqlanadi.

"Bu kim?" didaktik o'yini. Bu o'yinida berilgan topshiriqlarga ko'ra yoki o'yin ishtirokchilari tomonidan tayyorlangan har xil vaziyatdagi boshqaruvchilik qarorlarini qabul qilishni imitatsiya qilish (taqlid, aks ettirish) metodi hisoblanadi.O'yin faoliyati biron bir tashkilot vakili sifatida ishtirok etayotgan ishtirokchining hulq-atvori va ijtimoiy vazifalarini imitatsiya qilish orqali beriladi. Bir tomonidan o'yin nazorat qilinsa, ikkinchi tomonidan oraliq natijalarga ko'ra ishtirokchilar o'z faoliyatlarini o'zgartirish imkoniyatiga ham ega bo'ladi. "Bu kim?" o'yinida rollar va rollarning maqsadi aralashgan holda bo'ladi. Ishtirokchilarning bir qismi qat'iy belgilangan va o'yin davomida o'zgarmas rolni ijro etishlari lozim. Bir qism ishtirokchilar rollarini shaxsiy tajribalari va bilimlari asosida o'z maqsadlarini belgilaydilar. Ushbu o'yinda har bir ishtirokchi alohida rolli maqsadni bajarishi kerak. Shuning uchun vazifani bajarish jarayoni individual-guruhli harakterga ega. Har bir ishtirokchi avval o'zining vazifasi bo'yicha qaror qabul qiladi, so'ngra guruh bilan maslahatlashadi. O'yin yakunida har bir ishtirokchi va guruh erishgan natijalariga qarab baholanadi.

"Mening o'rnim qayerda?" usuli. Bu usulda o'rganilgan mavzu bo'yicha bilim, ko'nikma va malaka hosil qilishda kreativ yondashiladi.



21-SON



Oshxonami nonga yo,
Bozor, Borsang do'konga.
Bolam Navbatingni kut,,
bo'lma, Toqatsiz Hamdam!

Oshxonami yo nonga,
Borsang bozor, do'konga.
Navbatingni kut, bolam,
Toqatsiz bo'lma, Hamdam!



Xullas, ta'lif sohasida olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar, ta'lif mazmunini takomillashtirishga oid qabul qilingan qarorlar ta'lifni hayot bilan bog'lashni, o'qitish samaradorligini oshirishni, tez taraqqiy etib borayotgan jamiyat uchun har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalab yetishtirishni talab qilayapti. Keng qamrovli islohotlar ta'lif-tarbiya masalalari mohiyatini oshirib, barkamol shaxsni shakllantirishga jiddiy e'tibor qaratishni taqazo etmoqda.

TA'LIMDA NIMA MUHIM?

Ijodkorlik va
mantiqiy fikrlash
ko'nikmalarini
rivojlantirish



Moliaviy savodxonlik va
kasbga yo'naltirish



Raqamli
texnologiyada
mediasavodxon
bo'lish

Global fuqarolik va
tashabbuskorlik



Ekologik madaniyat
va tadqiqotchilik
ko'nikmalarini
rivojlantirish



Boshlang'ich sinf o'quvchilarni zakovatli, zukko etib tarbiyalash ham bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. Chunki, boshlang'ich ta'lim-ta'limning asosiy qismi hisoblanadi. Bunda o'quvchilar nutqini o'stirish ularga aniq ko'nikmalarni singdirish juda muhim.

FOYDALANILGAN A D A B I Y O T L A R:

- 1.Pedagogika. O'quv-qo'llanma.T.: O'zR FA "Fan".2006.
2. Golish L.V., Fayzullayeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. T., "Iqtisodiyot", 2012-y.
- 3.Internet saytlari.www.ziyouz.com kutubxonasi
-ZiyoNet .uz, - kitob.uz, - multimediya .uz